

**TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISHNING MUHIM JIHATLARI**

Temirova Zebiniso Salimjonovna

Navoiy viloyati Zarafshon shahri

1 - XTCHO'IDU maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf dars jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati xususida fikr boradi.

Kalit so'zlar: mustaqil ishslash, mashg'ulotlar, boshlang'ich sinf, dars jarayoni.

Boshlang'ich sinfni mazmunan modernizatsiya qilish, ilg'or tajribalar asosida o'qitish jarayoniga innovatsion pedagogik va multimedia texnologiyalarni joriy etish, bunda kadrlar salohiyatini oshirishga alohida e'tiborni qaratgan holda boshlang'ich ta'larning sifat-samaradorligini tubdan yaxshilash xalq ta'limi faoliyatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab olingan. Bu yo'nalishdagi ishlarni tizimli, izchil amalga oshirish maqsadida "Umumiy o'rta ta'lim tizimida boshlang'ich ta'larning sifat va samaradorligini oshirish bo'yicha harakat dasturi" ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Bu harakat dasturida belgilangan tadbirlar doirasida boshlang'ich ta'larning me'yoriy asoslari chuqur tahlil qilinib kompetensiyaviy yondashuv asosida DTS, o'quv dasturlari malaka talablari ishlab chiqildi. Bundan tashqari, boshlang'ich ta'larning mazmunini takomillashtirishga doir zamonaviy ilg'or pedagogik iinovatsion texnologiyalarni izlab topish, turkumlash, saralash, amaliyotga tatbiq etish, darsliklar mazmun-mohiyatiga kompetensiyaviy yondashuv asosidagi maqsadlarni singdirishga, ya'ni bilib berish bilan bir qatorda, o'quvchilarda amaliy, hayotiy kompetensiyalar(ko'nikmalar)ni shakllantirish muhim ahamiyat kasbetmoqda.

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligining 2013 yil 14- noyabrda «Umumta'lim maktablarida boshlang'ich ta'larning samaradorligini oshirish to'g'risida» 365-b-sonli buyrug'iga ko'ra boshlang'ich ta'limni rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi ishchi guruh tarkibi tasdiqlangan. Ushbu ishchi guruh rivojlangan chet el mamlakatlari hamda mamlakatimizdagi ilg'or tajribalarni o'rganib, ilmiy-metodik asoslangan xulosalar asosida "Boshlang'ich ta'limni rivojlantirish dasturi" ishlab chiqildi va boshlang'ich ta'lim konsepsiyasini takomillashtirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Shu nuqtai nazaridan, boshlang'ich ta'larning asosiy maqsadi bolaning o'qishga bo'lgan ijobjiy munosabatini, bugungi kunda eng zarur bo'lgan o'qish savodxonligi, turli ma'lumotlar bilan ishslash, asosiy matematik amallarni bilish va ularni kundalik hayotda qo'llay olish, mantiqiy va ijodiy fikrlash, o'z-o'zini boshqarish, jamoada o'zini tuta bilish, yozma va og'zaki muloqot madaniyati qoidalarini egallash, ta'limiy faoliyatni tashkil etish kabi ko'nikmalarni shakllantirishdan iboratdir. Shuning uchun o'qituvchining kasbiy salohiyati va ma'lumot darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim

metodikasini bilishi boshlang'ich ta'lism sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida zarur ko'nikmalarni shakllantirish, boshlang'ich ta'lism sifat-samaradorligini yangi bosqichga ko'tarish, o'qitishning zamonaviy usul va vositalarini amaliyatga joriy etish chora-tadbirlarini tizimli ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda kompyuterlardan oliv, umumiy o'rta ta'lism muassasalari ta'lism-tarbiya jarayonida keng foydalanilmoqda. Ayniqsa boshlang'ich sinflarda ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida multimedia ilovali metodik qo'llanmalar yaratildi va amaliyatga joriy etilmoqda.

Ma'lumki, multimedia texnologiyasi, asosan, kompyuterlar yordamida amalgalashiriladi. Ammo, hozirgi kunda respublikamiz boshlang'ich sinflariningko'pchiligi kompyuterlar bilan to'la ta'minlanmagan. Ayrim boshlang'ich sinflarda kompyuterli darslarining birinchi bosqichini televizor va DVD qurilmalari orqali amalgalashirilishining imkoniyati mavjud. Buning uchun, dasturli yoki rolli (ijroli) multimedia ta'lism vositalari tayyorlab diskka ko'chiriladi. Multimediali darslar asosan kompyuter yordamida amalgalashirilishi tufayli o'quvchilar ular bilan elementar ishlash darajasiga ega bo'lishlari lozim. Bu o'z navbatida o'quvchilarda kompyuter savodxonlikni shakllantirilishni taqozo etadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'zlari ham kompyuter savodxonligiga ega bo'lishlari lozim va shu bilan birga multimedia texnologiyasini o'zlashtirishlari zarur.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarga ta'lism berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish hozirgi kunning dolzarb masalasi. Multimedia tushunchasi hayotimizga o'tgan asr 90-yillarining boshida kirib keldi. Hozirgi davrga qadar multimedia tushunchasi ko'pgina mutaxassislar tomonidan turlicha tahlil qilinmoqda. Multimedia — bu informatika fanining dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishni mujassamlangan holdagi ko'rinishidir, degan ta'rif eng maqbuli deb hisoblaymiz.

Kompyuterlarning o'tgan asr 70-yillarida ta'lism sohasida keng qo'llash yo'lidagi urinishlar zoye ketganligi, avvalambor, ular unumdarligining nihoyatda pastligi bilan bog'liq edi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish samarasi an'anaviy usulga nisbatan ikki barobar unumli va vaqtadan yutish mumkin ekan. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30 foizgacha vaqtini tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlash 25–30 foizgacha oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishida mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75 foiz ortadi. Bunga multimedia vositalari asosida chet tillarini o'rganish jarayonida yana bir bor ishonch hosil qildik.

Xulosa qilib aytganda, multimedia vositalari asosida o'qitish quyidagi afzalliklar va imkoniyatlarni taqdim etadi:

- Berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati mavjudligi;

- o'quvchilarda ta'limg olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqining yanada ortishi;
- ta'limg olish vaqtining qisqarishi natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish mumkinligi;
- olingan bilimlar xotirada uzoq saqlanib, zarur bo'lganida amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishilishi mumkinligi va boshqalar.

Ta'limg muassasalari dars jarayoniga multimedia texnologiyalarining joriy etilishi ta'limg samarasini oshirishning asosiy omili bo'lib xizmat qilmoqda. Ta'limg tizimida innovatsion texnologiyalar, jumladan, multimedia texnologiyalari tatbiq etib borilmoqda. Ta'limg jarayonida o'quvchilarga texnik vositalar va multimedia texnologiyalari asosida ta'limg berish, berilayotgan bilimni tez va oson o'zlashtirilishi, ularning tushunarli va xotirada yaxshi saqlanishiga yordam berayotganligi amalda o'z isbotini topmoqda.